

MUXTOR ASHRAFIY UY MUZEYI FAOLIYATIDA EKSPOZITSION YECHIM



Bahodirova Diyora

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

Muzeyshunoslik: tarixiy-madaniy obyektlarni

konservatsiy va restavratsiya qilish

mutaxassisligi 2-kurs magistranti

bahodirovad8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18784527>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muxtor Ashrafiy uy muzeyining har bir zallari haqida to‘liq ma’lumot berilga. Muzey ilmiy asoslangan va tarixiy materiallar bilan boyitilgan bo‘lsa-da, maqolada zamonaviy tashrifchi uchun interaktiv va multimedia elementlarini rivojlantirish tavsiya etilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa madaniyati, Ekspozitsion yechim, Operalar va balet, Dirijyorlik va o‘qituvchilik, Milliy musiqa merosi, Multimedia va interaktiv ekskursiya.

Аннотация. В данной статье представлен полный обзор каждого зала дома-музея Мухтора Ашрафия. Музей научно обоснован и дополнен историческими материалами, однако в статье рекомендуется развитие интерактивных и мультимедийных элементов для современного посетителя.

Ключевые слова: Музыкальная культура, Экспозиционное решение, Оперы и балет, Дирижирование и преподавание, Национальное музыкальное наследие, Мультимедиа и интерактивные экскурсии.

Annotation. This article provides a comprehensive overview of each hall of the Muxtor Ashrafiy House Museum. The museum is scientifically based and enriched with historical materials, but the article recommends the development of interactive and multimedia elements for modern visitors.

Keywords: Musical culture, Exhibition design, Operas and ballet, Conducting and teaching, National musical heritage, Multimedia and interactive tours.

O‘zbekistonda uy-muzeylar milliy madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishning muhim shakllaridan biridir. Ushbu muzeylar nafaqat tarixiy shaxslarning hayoti va ijodini aks ettiradi, balki xalqimizning boy madaniy an‘analari, amaliy san‘at va hunarmandchilik merosini ham namoyish etadi. O‘zbekiston uy-muzeylari zamonaviy muzey ishlanmalari asosida tashkil etilib, milliy xotirani saqlash, tadqiqot va ma‘rifiy faoliyatni birlashtiruvchi maskan sifatida rivojlanmoqda. Ularning faoliyati nafaqat tarixiy ob‘ektlarni saqlash, balki keng jamoatchilikni milliy madaniyat va san‘atga jalb qilishga ham qaratilgan. Shu bois, uy-muzeylarning shakllanishi va faoliyati o‘rganilishi ularning amaliyoti va metodik yondashuvlarini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Turli ixtisoslikdagi muzeylar boshqa davlatlar singari O‘zbekistonda ham ko‘pdir, ammo musiqa ixtisosligidagi muzeylar o‘zining yorqin qirralari bilan ajralib turadi. Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi O‘zbekiston musiqa madaniyatini aks ettiruvchi uy muzeyi sifatida faoliyat yuritadi.

Muzey ekspozitsiyasi ikki qavat, oltita zal orqali tashkil etilgan bo‘lib, har bir zal kompozitor hayotining muayyan davri va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu uslubiy yondashuv ekspozitsiya ilmiy-tahliliy va vizual izohni birlashtirgan holda yaratilgan. Muzey 1982-yili bastakorning Toshkent shahrida 1965-yildan 1975-yilgacha yashab ijod qilgan xonadonida tashkil etilgan¹. Memorial muzeyi o‘zbek kompozitori va dirijyori, Toshkent Davlat Konservatoriyasi professori, xalq artisti, davlat va xalqaro mukofotlar sovrindori, jamoat arbobi va ma’rifatparvar Muxtor Ashrafiyning (1912 — 1975) hayot va ijod yo‘li bilan tanishtiradi. Muzey kompozitor yashab ijod qilgan Toshkentdagi xonadonda 1976-yili tashkil etilgan. Muzey ko‘rgazmasining ochilish marosimi 1982-yil 11-iyunda bo‘lib o‘tgan. Muzey fondi asosini kompozitorning oilasi, hamkasblari va shogirdlari taqdim etgan 16 mingdan ortiq eksponatlardan iborat kompozitorlik va dirijyorlikka oid keng arxivdan iborat. Arxiv hujjatlari nafaqat kompozitorning hayot va ijod yo‘li, balki respublikaning musiqa san’ati taraqqiyoti haqida ham hikoya qiladi.

Mehmonlar ekskursiyalar davomida Muxtor Ashrafiyning respublika madaniyatining turli sohalaridagi faoliyatining aks ettiruvchi fotosuratlar, afishalar, dasturlar, xatlar va yodgorliklar bilan tanishadilar. Konsert zalida madaniyat va san’at arboblari bilan ko‘plab ijodiy uchrashuvlar, yubiley va xotira kechalari, badiiy ko‘rgazmalar va konsertlar o‘tkazib kelinadi. Memorialning birinchi zalida Muxtor Ashrafiyning 1912-yildan 1945-yilgacha bo‘lgan dastlabki hayot faoliyatini hikoya qiluvchi turli eksponatlar joy olgan. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan oilaviy ashyolari: 200-yil avval buxorolik ustalar yasagan dutor va tanbur, o‘zbek cholg‘u asboblari va kompozitorning bolaligi o‘tgan Buxoro shahridagi uy maketi joy olgan.

Ko‘pgina teatr afishalari, konsert dasturlari va fotosuratlarda Muxtor Ashrafiyning bu davrdagi ijodiy ishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Zalning asosiy eksponati Birinchi qahramonlik simfoniyasini yozgani uchun O‘zbekiston SSR hukumati tomonidan berilgan sovg‘a hisoblanadi (1942-yil).

Muzey ekspozitsiyasida milliy opera asoschisining fotosuratlari, hujjatlari, qo‘lyozmalari, plakatlar, spektakl dasturlari, shuningdek, dirijyorning shaxsiy arxivi o‘rin olgan. Bundan tashqari bastakorning bolaligi o‘tgan uyning dioramasini ham mavjud.

Muzey oltita xonadan iborat. Birinchi zalda uning bolalik yillari, uchta esa hayot davrlari bo‘yicha asarlari ko‘rsatilgan, beshinchi zal Ashrafiyning ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga bag‘ishlangan. Muzey xonalaridan biri buyuk bastakor va rejissyorning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Bu yerda uning “Rustam afsonasi”, “Muhabbat tumori”, “Temur Malik” va boshqa ko‘plab asarlari to‘plangan. Zal qismi konsertlari, ko‘rgazmalar va musiqa saloni uchun ajratilgan².

Birinchi zal materiallari katta davrni — musiqachining hayot yo‘li boshlanganidan 1945 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan.

Muxtor Ashrafiyning bolalik yillari Buxoroda, taniqli xalq hofizi va dutorchi mashshoq Ashrafxon Hofiz xonadonida kechgan. Ekspozitsiyaga Ashrafiy voyaga yetgan uy dioramasini qo‘yilgan. Bu uy qadimiy Buxoro shahrining burchaklaridan birida hamon saqlanib qolgan bo‘lib, unda musiqachining qarindoshlari istiqomat qilishadi. Ashrafxon Hofizning saqlanib qolgan yagona fotosurati hamda uning musiqa asboblari — tanbur va dutorga alohida joy ajratilgan. Bular oila yodgorliklari bo‘lib, bobodan otaga, otadan o‘g‘ilga meros bo‘lib kelgan.

M. Ashrafiy otasi uning birinchi ustozini bo‘lganini ta’kidlagan. Yetti yoshligida u dutorni bemalol chalgan. “Musiqa ohanglari qulog‘imga chalinishi bilan har qanday o‘yinni tark etib

¹ <https://meros.uz/object/muxtor-ashrafiy-uy-muzeyi>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Muxtor_Ashrafiy_uy-muzeyi

mehmonxonaga yugurardim va soatlab o'tirib tinglardim", — deb eslagan M. Ashrafiy. "Mehmonxona ostonasida uxlab qolgan paytlarimda otam meni necha bor ko'tarib, onamga eltib bergan"³.

1924 yilda M. Ashrafiy otasining do'sti, dutorchi mashshoq Tohirjon Davlatzoda tavsiyasi bilan Buxorodagi Sharq musiqa maktabiga o'qishga kiradi. Ekspozitsiyada Sharq musiqa maktabida olingan guruh bilan tushilgan noyob fotosurat namoyish etilgan. O'sha yillarda maktab o'z o'qituvchilari — taniqli xalq musiqachilari bilan shuhrat qozongan edi. Fotosuratda Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Tohirjon Davlatzoda hamda keyinchalik dong taratgan shogirdlari — Shohnazar Sohiboyev, Fazliddin Shohobovlar aks etgan. Muxtor Ashrafiy ham ular orasida.

Muxtor Ashrafiy maktabda o'qish bilan bir qatorda Buxoro maorif oliygohida tahsil olgan. Ekspozitsiyada oliygohning musiqali drama to'garagi ishtirokchilari tushgan noyob surat ham o'rin olgan. Ular orasida M. Ashrafiy va keyinchalik taniqli drama aktyori bo'lib yetishgan Olim Xo'jayev bor. Ashrafiyning aytishicha, u aynan shu to'garakda musiqa-teatr san'ati bilan ilk bor tanishgan.

Bu davr hujjatlari orasida Buxoro Sharq musiqa maktabini bitirganlik haqidagi attestat ham bor bo'lib, unga 1929 yil 28 may sanasi qo'yilgan.

Samarqanddagi O'zbekiston musiqa va xoreografiya oliygohida (O'zmushorol) o'qish yillari yosh musiqachining ijodiy o'sishining birinchi bosqichi bo'lgan. O'sha yillarda unga yirik musiqachi, folklorshunos va jamoat arbobi N.N. Mironov rahbarlik qilgan. Suratlarda N.N. Mironov xalq musiqa yozuvlarini tahlil qilayotgani hamda O'zmushorol aspiranti — yosh Ashrafiy tasvirlangan. Guruh bo'lib tushilgan suratlar ayniqsa qiziqarli. Ulardan birida M. Ashrafiy kursdoshlari T. Sodiqov va Sh. Ramazonov bilan birga aks etgan. Aynan ular o'zbek musiqasida simfonik partituraning dastlabki namunalaridan biri — 1930 yilda yaratilgan "Sadrash" marshining mualliflaridir. Boshqa fotosuratda M. Ashrafiy O'zmushorol simfonik orkestri bilan birga tasvirlangan bo'lib, surat orqasiga kompozitor qo'li bilan: "Muxtor Ashrafiy birinchi bor dirijyorlik pultida", deb yozilgan.

O'qish davri Moskva konservatoriyasi qoshidagi O'zbek opera studiyasida tahsil olgan yillarda olingan fotosuratlar bilan yakunlanadi. Ashrafiy Moskvaga boshqa iqtidorli musiqachilar bilan birga o'qishga yuborilgan edi. Fotosuratlarda Moskva konservatoriyasi o'qituvchilari N.I. Speranskiy, A.N. Askochinskiy, N.T. Rayskiy hamda o'quvchilardan Halima Nosirova, Muhiddin Qori Yo'qubov, Karim Zokirov va Muxtor Ashrafiy aks etgan. M. Ashrafiy Moskva konservatoriyasida 1934–1936 yillarda tahsil olgan.

U o'z faoliyatini 1930 yilda Toshkentdagi O'zbek musiqali teatrida orkestr musiqachisi sifatida boshlagan. 1931 yilda musiqa qismi bo'yicha bo'lim mudiri etib tayinlangan. O'shanda u atigi 19 yoshda edi. M. Ashrafiyning teatr faoliyatining boshlanishi fotosuratlarda aks etgan. Ulardan birida yosh musiqachi Muhiddin Qori Yo'qubov bilan birga tushgan. Teatr jamoasining 1932 yildagi gastrol safari chog'ida olingan fotosurati ham alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu zalda tashrifchi Ashrafiyning ilmiy va ijodiy o'sish bosqichlarini ko'radi.

Vitrinaga "Qurilish marshi" — o'zbek kompozitori tomonidan ilk bor mustaqil ravishda yaratilgan simfonik partitura qo'lyozmasining bir qismi qo'yilgan. Ashrafiy asarining birinchi bor yozib olingan marsh ovozli plastinkasi ham shu yerda namoyish etilgan.

³ Ashrafi M. Yoshlik, balog'at yoshi, voyaga yetish. Qo'lyozma-B. 19..

Birinchi zal vitrinasida M. Ashrafiyning ilk bor kiygan dirijyorlik kamzuli va tayoqchasi namoyish etilgan. Zal markazida esa kompozitorning royali hamda qadimiy zang chalinadigan soat joylashtirilgan.

Kompozitor ijodiy yo'lining boshlanishi asarlarining qo'lyozmalari, afishalar va nota nashrlarida o'z aksini topgan. Uning asli shakli va xona tartibi saqlangan, bu esa tarixiy muhitni tasvirlashga yordam beradi.

Ikkinchi zalda O'zbekiston SSR xalq artisti, taniqli kompozitor va dirijyor M. Ashrafiy 1948 yilda o'zining san'at ijrochilik mahoratini Leningrad konservatoriyasida takomillashtirishga qaror qiladi. U taniqli dirijyor B.E. Xaykin sinfida tahsil oladi, imtihonlarni muddatidan oldin topshiradi va simfonik dirijyorlik mutaxassisligi bo'yicha Leningrad konservatoriyasi diplomini oladi.

Ekspozitsiyaga qo'yilgan materiallar orasida Leningrad konservatoriyasi opera studiyasining Ashrafiy boshchiligidagi ijro etilgan "Karmen" operasi repertuar rejasi, o'zbek dirijyorining spektakl sahnalashtiruvchilari va ijrochilari bilan tushgan fotosurati mavjud. Shuningdek, Kirov nomidagi Leningrad opera va balet teatri repertuar rejasi ham namoyish etilgan. Ashrafiyning diplom ishi — J. Verdiyning "Aida" operasi — mazkur reja asosida sahnalashtirilgan. Ekspozitsiyada kompozitorning teatr orkestr jamoasi bilan tushgan fotosuratlar ham o'rin olgan. Fotosuratlar va dokumentlar birlashtirilgan, ekspozitsiya orqali Ashrafiyning xorijiy teatrlar bilan aloqasi va professional rivojlanishi yoritilgan. Ushbu zalda tashrifchilar kompozitorning professional yuksalishini, dirijyorlik san'atida yetukligini ko'rishi mumkin.

Uchinchi zalda M. Ashrafiyning ijodiy yetuklik davri "Dilorom" operasi (1958) bilan boshlandi. A. Navoiyning "Yetti sayyora" dostoni mazmuni asosida yaratilgan ushbu opera respublika musiqa hayotida haqiqiy voqea bo'ldi. Partituraning yuksak mahorat bilan yaratilgani, musiqa tilining yorqin milliyligi hamda sahnalarning mukammal bezatilgani asarning teatr milliy repertuarida keng ommalashishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, mazkur opera o'zbek kompozitori tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan birinchi opera ekanligi bilan ham ahamiyatlidir (bungacha musiqali sahna asarlarini mualliflar guruhi yaratib kelgan).

Ekspozitsiyalarda "Dilorom" premyerasining afishasi, muallif va sahnalashtiruvchilar — K. Yashin, M. Muhamedov, E. Yungvald-Xilkevich, M. Musayevning suratlari hamda kostyum namunalari namoyish etilgan. Vitrinada operaning gramplastinkalar albomi va uning chet tillardagi rangli dasturi ham qo'yilgan.

Bir guruh eksponatlar "Shoirning qalbi" operasi (1962)ga bag'ishlangan bo'lib, ular taniqli o'zbek shoiri, inqilob kuychisi Furqat taqdiri haqida hikoya qiladi. "Shoirning qalbi" operasida murakkab vazifa hal etilgan — opera san'ati vositasida asrimiz boshlarida Turkistondagi ijtimoiy hayotning ziddiyatli muhitini ko'rsatish va shu asosda taniqli o'zbek shoiri, ma'rifatparvarining yorqin timsolini qayta gavdalantirishga dadil urinish bo'lgan. Musiqashunos T.S. Vizgo bu asar haqida: "Bu opera murakkab vazifani hal etishda — Turkiston ijtimoiy hayotining ziddiyatli muhitini ko'rsatish va yorqin obraz yaratishda e'tiborga loyiq dadil tajribadir", — deb yozgan edi⁴.

Ashrafiy iborasiga ko'ra, opera uning eng sevimli janridir. Asar musiqasida kompozitor-dramaturgning yetuk mahorati "Dilorom" operasiga qaraganda yanada yorqinroq namoyon bo'lgan. Til jihatidan murakkab bo'lgan musiqa qahramonlarning ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarini keskin va ta'sirchan gavdalantiradi.

Fotosuratlarda libretto muallifi I. Sultonov, bosh rollarni ijro etuvchilar, spektakl dasturlari hamda opera yozib olingan gramplastinkalar albomi aks etgan. Har bir opera uchun alohida vitrin,

⁴ O'zbek sovet musiqasi tarixi, 2 j, Toshkent, 1973- B. 186..

sahna dekoratsiyasi va asarlar bo‘limi ajratilgan. Bu zal orqali tashrifchi o‘zbek musiqasi va teatr san’atining milliy yo‘nalishi, Ashrafiyning mustaqil ijodiy yondashuvi bilan tanishadi.

To‘rtinchi zalda kompozitorning so‘nggi yirik asarlari — “Temur Malik” baleti va “Rustam haqida doston” oratoriyasidir.

“Temur Malik” baletining tarixi 1970 yilda bir parcha spektakl yaratishdan boshlandi. “S. Ayni poemasini o‘qib chiqish yuzasidan” yozilgan va atoqli tojik yozuvchisi xotirasiga bag‘ishlangan balet, tojik xalqining Chingizxon galasiga qarshi kurashi haqida hikoya qiladi. “Temur Malik” A. Navoi nomidagi DAKT sahnasida kiyilgan. Baletning ikkinchi — uch parchalik tahrir spektakli 1972 yilda S. Ayni nomidagi Tojikiston opera va balet teatrida amalga oshirildi. Uchinchi tahriri — “Makr va Muhabbat” — 1974 yilda Toshkentda kiyilgan.

Balet ustida olib borilgan ishlarning uch bosqichi ekspozitsiyalarda aks etgan: B. Korneva va V. Vasilyev ishtirokidagi “Makr va Muhabbat” spektaklidan fotolar, bir parchalik spektakl sahnalaridan suratlar hamda Tojikiston opera teatrining “Temur Malik” baleti afishasi va repertuar rejasi ekspozitsiyaga qo‘yilgan.

Kompozitor tomonidan Firdavsiyning “Shohnoma” poemasi mazmuni asosida yaratilgan so‘nggi yirik asar “Rustam haqida doston” oratoriyasining materiallari ham shu yerda namoyish etilgan. Stendlarda oratorianing nota nashri uchun A. Ponomarov tomonidan ishlangan bezaklar, oratoriya klaviri (fortepianoqa moslab qayta ishlangan partitura) mavjud. Vitrinada kompozitorning so‘nggi dirijyorlik tayoqchasi, oratoriya musiqasi asosida M. Ashrafiyning do‘sti kompozitor B. Zeydman tomonidan yaratilgan “Rustam haqida doston” baletidan yozib olingan gramplastinka albomi qo‘yilgan.

Balet va oratoriya materiallari alohida zonalarda namoyish etilgan, har bir sahna tafsilotlari bilan. Tashrifchi muzey orqali balet va oratoriya janrlarining rivojlanishi, Ashrafiyning dramaturgik va kompozitorlik yondashuvini ko‘radi.

Beshinchi zalda kompozitor faoliyatining boshqa tomonlari — o‘qituvchilik, jamoat ishlari va xalqaro faoliyati yoritilgan.

M. Ashrafiy respublika musiqa madaniyati uchun kadrlar tayyorlashga umrining 30 yildan ortiq vaqtini bag‘ishlagan. U o‘zining o‘qituvchilik faoliyatini 1943 yilda konservatoriyada boshlagan va keyingi yillar mobaynida opera tayyorlov kurslarida ishlagan. Ikki (1947 va 1971 yillarda) oliygohga rektor etib tayinlangan.

Professor Muxtor Ashrafiy butun dirijyorlik maktabining asoschisidir. “Siz dirijyorlik mahalliy maktabiga asos solgan kishining Muxtor Ashrafiydek mahorat egasi ekanligi bilan faxrlanishingiz mumkin!” — degan edi SSR xalq artisti E. Svetlanov⁵.

Fotosuratlarida M. Ashrafiyning respublika va undan tashqarida taniqli shogirdlari — D. Abdurahmonova, A. Abdukayumov, G. Tulaganov, E. Toshmatov, X. Shamsuddinov va boshqalar aks etgan. 1946 yildan u boshchilik qilgan Toshkent konservatoriyasining opera klasslari asosida opera studiyasi tashkil etilganligi dirijyorning muhim xizmatlaridan biri bo‘lgan.

Musiqa madaniyatining taniqli arboblari — R. Gliyer, Yu. Tyulin, G. Ginzburg fikrlari ekspozitsiyaga qo‘yilgan. Fotosuratlarida M. Ashrafiyning studiya talabalari, yosh xonanda va dirijyorlar bilan ishlash jarayoni aks etgan.

Ekspozitsiyaning bir qismi musiqachining respublika hayotining turli sohalarida olib borgan jamoat ishlari, shuningdek, oila a‘zolari, farzandlari, nevaralari va yaqin qarindoshlari bilan birga o‘tkazgan damlari ham yoritilgan. Tashrifchi muzeyda shaxsiy fotosuratlar, diplomlar va sovrinlar orqali Ashrafiyning pedagogik va jamoat ishlari bilan tanishadi. O‘quvchilar va

⁵ Temina E. A. Muxtor Ashrafiy muzeyi. — Toshkent: B. 48.

mutaxassislar uchun pedagogik metodika, jamoatchilik ishlarining muhimligi, shogird tarbiyasidagi rol ko'rsatiladi.

Oltinchi zal ya'ni xotira xonasi kompozitorning ko'p qirrali shaxs ekanligidan dalolat beradi. Kitob javonida tarix, falsafa, musiqa ilmi, ensiklopediya va solnoma nashrlari, shuningdek badiiy kitoblar namoyish etilgan. Shu yerda A. Rimsky-Korsakov portreti joylashgan pianino ham mavjud. Kursi ustida M. Ashrafiy hayotining so'nggi damlarida foydalangan narsalari turibdi. Devorlar va kitob javonlarida kompozitor qarindoshlari, musiqachi hayoti va ijodiy yo'lida mustahkam aloqada bo'lgan safdoshlar va do'stlarning fotosuratlarini joylashtirilgan. Har bir predmet shaxsiy xotira va ijodiy iz qoldirgan voqealarni aks ettiradi. Tashrifchi kompozitorning shaxsiy hayoti va ijodiy merosini, musiqiy va ilmiy qirralari bilan tanishadi.

Xulosa

Muxtor Ashrafiy muzeyi ekspozitsion yechimi ilmiy va vizual jihatdan yaxshi tashkil etilgan.

1. Har bir zal musiqachining hayotiy va ijodiy bosqichlarini yoritadi.
2. Ekspонатlar tarixiy, dokumental va vizual materiallar orqali mustahkam kontekst yaratadi.
3. Milliy musiqa san'ati rivoji va Ashrafiyning roli aniq ko'rsatilgan.
4. O'quvchi, talabalar va keng jamoatchilik uchun ta'limiy, estetik va tarixiy qiymat taqdim etadi.
5. Har bir ekspozitsion yechim ilmiy asoslangan va tashrifchi ongida musiqa madaniyati tarixini tizimli shaklda tasavvur qilish imkonini beradi.

Ammo hozirgi rivojlanib borayotgan davrda har bir sohani takomillashtirish juda muhimdir. Muxtor Ashrafiy muzeyi tarixiy va ilmiy jihatdan kuchli bo'lsa-da, zamonaviy tashrifchi tajribasi va interaktivlik jihatidan modernizatsiyaga muhtoj. Hozirgi zamon tashrifchilari, ayniqsa yoshlar, interaktiv va multimedia elementlarni kutadi. Ko'pchilik ekspozitsiyalar statik, ya'ni faqat ko'rish va o'qish bilan cheklanadi. Virtual ekskursiyalar, QR kodlar orqali audio va video materiallarni qo'shish orqali va musiqani tinglash stendlari, interaktiv touch-ekranlar bilan sahna yoki asar yaratilish jarayonini ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari ba'zi ekspонатlar hali zamonaviy klimat nazorati yoki UV himoyasiga ega emas. Ko'p ekspонатlar faqat vitrinada, interaktivlik yo'q. Klimat nazoratli vitrinlar va himoya qoplamalarini joriy etish, ularni sifatli saqlashga yordam beradi. Ba'zi ekspонатlarning 3D skanerlangan nusxalarini interaktiv stendlarda ko'rsatish ham yoshlarni qiziqtirishi aniq.

Zamonaviy auditoriya, ayniqsa yoshlar, vizual va o'yin shaklida o'rganishni afzal ko'radi. Seminar, master-klass va interaktiv darslar yetarli emas. Shuning uchun o'quv dasturlarini, master-klasslarni va interaktiv seminarlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Virtual real va aralashgan (VR/AR) ekskursiyalarni yaratish hozirgi zamonda xammani birdek jalb qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashrafi M. Yoshlik, balog'at yoshi, voyaga yetish. Qo'lyozma-B.19.
2. O'zbek sovet musiqasi tarixi. 2-J. Toshkent, 1973-B.186 .
3. Temina E. A. Muxtor Ashrafiy muzeyi. — Toshkent: B. 48.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muxtor_Ashrafiy_uy-muzeyi
5. <https://meros.uz/object/muxtor-ashrafiy-uy-muzeyi>